

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS
OF TEACHING MUSIC IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS USING
INTERACTIVE METHODS**

Sevaraxon Kenjayeva Bakhtiyorjon qizi.

“Music Education and Art Studies”

2 nd year master’s student

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.06.2026

Revised: 08.06.2026

Accepted: 09.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*music education,
pedagogical foundations,
music culture,
pedagogical skill,
professional competence,
interactive methods,
modern pedagogical
technology, learner-
centered approach,
creative activity,
aesthetic education,
musical ability,
innovative education,
student engagement,
music instruction.*

This article examines the pedagogical foundations of teaching music in general education schools, as well as the theoretical and practical aspects of the subject. It analyzes the philosophical, medical, physiological, and sociological bases of music education and highlights its significance for the spiritual-moral, aesthetic, and creative development of students. The article outlines the objectives and tools of music education and the subject of "Music Culture," while also addressing the role of pedagogical technologies, interactive methods, and learner-centered approaches in the educational process. Special attention is given to the development of pedagogical and professional competencies and the creative growth of future music teachers. The research findings emphasize the importance of fostering aesthetic taste, respect for national values, and independent thinking among students..

KIRISH

Fan o'qitishning pedagogik asoslari falsafa, psixologiya, fiziologiya va sotsiologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson shaxsini rivojlantirish maqsadida ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini belgilaydi. Bunda ilmiy bilimlarni tushuntirish, ko'rg'azmali va reproduktiv usullardan foydalanish bilan birga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash,

shuningdek, psixologik bilimlarga asoslanib o'quv-tarbiyaviy tizimni samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa fanini o'qitishning pedagogik asoslari musiqqa orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini ochish, ularning musiqqa madaniyatini shakllantirish, boshqa fanlar bilan integratsiya qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan bo'lib, bunda o'qituvchining mahorati, o'quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantirish va qiziqishni uyg'otish muhim ahamiyatga ega. Asosiy maqsad – shaxsni musiqqa orqali rivojlantirish va ijodkorlikni o'rgatishdir.

Pedagogik asos deganda, ta'lim-tarbiya jarayonining ilmiy-nazariy, falsafiy va amaliy negizi tushuniladi; bu o'qitishning maqsadlar, mazmuni, usullari, vositalari, shuningdek, shaxsni shakllantirishga qaratilgan barcha tamoyillarni o'z ichiga oladi va falsafa, psixologiya, etika kabi fanlardan oziqlanadi.

Pedagogik asosning asosiy elementlari:

Ilmiy nazariy negiz: Pedagogika fanining psixologiya, falsafa, demografiya kabi fanlar bilan bog'lanishi, ularning nazariy xulosalaridan o'qitish jarayonida foydalanish.

Falsafiy asos: Dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, adolat) va shaxsning ma'naviy rivojlanishiga oid qarashlar.

Amaliy asos: Tarbiya va o'qitish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shaxs sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat.

Metodologik asos: Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning usullari, vositalari va texnologiyalari.

Asosiy pedagogik tamoyillar va yondashuvlar:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Har bir o'quvchining individual qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda ta'lim berish.

Integrativ yondashuv: Musiqani boshqa fanlar (tarix, adabiyot, tasviriy san'at) bilan bog'lab o'qitish orqali bilimlarni chuqurlashtirish.

Ijodiy faoliyatga asoslanish: Mashg'ulotlar, ijodiy topshiriqlar, ijrochilik orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Interaktiv usullar, raqamli vositalar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni darsga tatbiq etish.

Musiqqa madaniyatini shakllantirish: Musiqqa asarlarini tinglash, tahlil qilish, milliy va jahon musiqasini o'rganish orqali estetik didni tarbiyalash.

Faollashtirish va mustaqil fikrlash: O'quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

Pedagogik asoslar:

Falsafiy asoslar: Ta'limning umumiy maqsadlarini belgilash va metodologiyasini yaratishda falsafiy bilimlarga tayaniladi.

Psixologik asoslar: O'quvchilarning yoshi, rivojlanish xususiyatlari va psixologik holatiga asoslanib samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish (pedagogik psixologiya).

Fiziologik asoslar: O'quvchining aqliy va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish.

Sotsiologik asoslar: Ta'limning ijtimoiy vazifalarini belgilash va insonni jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish o'quvchilarning estetik, ma'naviy va ijodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Musiqa madaniyati darsi orqali o'quvchilarda musiqa san'atiga mehr, milliy va jahon musiqa merosini hurmat qilish, ijodiy qobiliyatlar shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida musiqa ta'limi davlat siyosatining muhim qismi bo'lib, "Musiqa madaniyati" fani davlat ta'lim standartlari asosida o'qitiladi.

Umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning pedagogik asoslarini o'rganish, o'qitish maqsad-vazifalari, metodlari va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish.

Vazifalar:

- Musiqa ta'limining pedagogik asoslarini aniqlash.
- O'zbekiston ta'lim tizimida musiqa fanining o'rni va rivojlanishini ko'rib chiqish.
- O'qitish metodlari va texnologiyalarini tavsiflash.
- Amaliy misollar keltirish.

Oliy dargohlarda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilar bilim va salohiyati umumiy o'rta ta'lim sifatini belgilab beradigan eng zarur omillardan. Musiqa ta'limi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'limdagi bola ma'naviyati, madaniyati, estetik didi, dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim fan bo'lib, pedagoglarga alohida mas'uliyat yuklaydi. Umumiy o'rta ta'limda o'rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Musiqa madaniyati fanining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafasat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

“Musiqa madaniyatini o'quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:

O'quvchilarga berilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotga bog'lab olib borish;

O'quvchilarda musiqa san'atiga mehr, qiziqishni o'stirish;

O'quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;

Musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;

Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish; Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish;

Musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda

axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash". Demak, musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"

Zero o'qituvchi "pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi" zarur. O'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umummilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko'nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta'rif beriladi. "Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis" dir. Pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlikning yuqori ko'rsatkichi; - O'z faniga doir mukammal bilimlar sohibi;

Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni ham puxta o'zlashtirib, o'z kasbiy faoliyatida ularni ishlata oladigan shaxs;

O'quv va tarbiyaviy ishlar uslubiyatini mukammal biladigan pedagog. Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati bir –biri bilan bog'liqlikda bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat:

a) Pedagogik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi - o'qituvchining ijtimoiy rivojlanishning ehtiyojlari, jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan asosiy talablarni bilishidir. Dunyoqarash jihati bo'lajak musiqa o'qituvchisi faoliyatida, ijodiy izlanishlarida ijtimoiy yo'nalishlarni belgilaydi. Bolalar musiqa o'qituvchisining haqiqiy dunyoqarashi, uning u yoki bu voqelik hodisasiga shaxsiy munosabatini yaxshi his qilishadi va qaysidir tomondan o'zlariga singdirishga harakat qilishadi.

b) Pedagogika, psixologiya va fiziologiyada to'plangan kasbiy pedagogik bilimlar. O'qituvchi doimo o'zgarib turadigan pedagogik vaziyat bilan shug'ullanadi. O'quvchilarning darsdan-darsga musiqadagi bilimi, tajribasi boyitiladi, shu bilan birga ularning aqliy, axloqiy rivojlanishi bir-biridan farqlanadi. Bularning pedagogik usullarning o'zgarishini, muayyan vaziyatda eng samarali bo'ladiganlarini izlash va qo'llashni talab qiladi.

c) Pedagogik faoliyatning keyingi tarkibiy qismi - bu yuksak axloq, uning yetkazib beruvchisining estetik madaniyati. Sababi musiqa "insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o'stirishda tengsiz ahamiyat kasb etadi". Bolalarga eng samarali ta'sir ko'rsatish sahna madaniyati-yu imo-ishoralar, mimikalar orqali amalga oshadi. A.S. Makarenkoning fikricha, "... mimikaga ega bo'lmagan, yuziga kerakli ifodani bera

olmaydigan yoki kayfiyatini ushlab turolmaydigan yaxshi o'qituvchi bo'lishi mumkin emas"

d) Keyingi komponent tadqiqotdir. Zamonaviy maktabda global o'zgarishlar jarayonlari sodir bo'lib, bo'lajak o'qituvchidan o'z faoliyatini yangi pedagogik bosqichga yo'naltirishni talab qiladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining tadqiqot komponentini o'zlashtirishi pedagogik hodisalarga ijodiy yondashish, ilmiy-pedagogik tadqiqot usullarini o'zlashtirish, boshqa o'qituvchilar tajribasi va o'z tajribasini tahlil qilish asosidagi o'zaro bog'liq harakatlarning izchil tizimidir.

Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda ta'limni yanada takomillashtirishni dars jarayonida innovasiyalarning turli shakllaridan tadbiq etmasdan turib amalga oshirishning imkoni yo'q. Bu esa ta'lim va tarbiyani o'rganuvchi pedagogika sohasiga "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetensiya" kabi tushunchalar kirib kelishiga asos bo'layotgani ma'lum.

XULOSA

Xulosa qilib, umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning pedagogik asoslari o'quvchilarning ma'naviy, estetik, axloqiy va ijodiy kamolotini kuzatishda muhim omil bo'ladi.

Pedagogik asoslarning mazmuni ta'lim jarayonining maqsadi, vositalari, jarayonlari, metodlari va texnologiyalarini muhim o'rin egallashi aniqlandi. shaxsiy, shaxsiyga yo'qotilgan ta'lim, integrativ signal va innovatsion metodlardan musiqa ta'limining imkoniyatlari yanada ochib berish.

Musiqa fanining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa san'at madaniyatiga ishlab chiqarish uyg'otish, hamda hujjat musiqiy tafakkuri va ijodiy resurslarini rivojlantirish, milliy jahon musiqa merosi haqida bilim va tasavvurlar hosil qilishdan hosil bo'lishi qayd etilgan. Shu bilan birga, musiqa darslari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, musiqiy didi, tinglash madaniyati va ijrochilik mahorati ta'kidlandi. Maqolada musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasi ham alohida o'rin tutdi. Zamonaviy o'qituvchi o'z fanini mukammal bilishi bilan bir qatorda pedagogika, psixologiya va innovatsion texnologiyalarni ham chuqur egallagan bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Chunki o'qituvchining bilim saviyasi, ijodkorligi va metodik dars sifatini belgilovchi mahoratidan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda global va axborot texnologiyalari rivojlanish darajasidagi musiqa ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, intermediate dasturiy ta'minot va axborot texnologiyalari. Interaktiv usullar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularni mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga va hamkorlikda ishlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.(<https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0033/3.14.%20PEDAGOGIKA> FANINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.Abduvaliyeva Marjona Anvar qizi.Ergashova Elinura Baxtiyor qizi.Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedgogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi
- 2.<https://mpcareer-google.ru/index.php/journal/article/> S.T. Azimova, & X.S. Salimova. (2025). PEDAGOGIK JARAYONNING ASOSIY TAMOIYILLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIMGA TA'SIRI. 63-2 (tom 2).
3. Ho'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil. 10-11-bet.
4. Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010-yil, 4-bet.
5. Mavlonova R, Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009-yil. 11-bet
6. Umarov E., Karimov M., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2009-yil. 123-bet.
7. Макаренко А.С. Педагогические сочинения: В 8 т. М.: Прогресс, 1983–1986. 172-bet.
8. Kenjayeva, SB va SB Abdurashidov. "MUSIQA DARSLARINDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI." *Fan va ta'limdagi yutuqlar* 2.01 (2026): 113-116.
9. Asqarova, S. M. va S. B. Kenjayeva. "UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA FANINI INNOVATION TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI." *SARQ SAN'ATI VA MADANIYATI* 7.02 (2026): 190-195.